

## KRUPOZ ZOTILJAM

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi  
NAMOZOVA UMIDA ABDURAFIQ QIZI

**Annotatsiya:** Ushbu maqola krupoz zotiljam kasalligi kelib chiqish sabablari, klinikasi davolash, bu kasallikda zamonaviy davolash usullarini qo'llash, zamonaviy texnikalardan foydalanishga mo'ljallangan.

**Резюме:** Данная статья призвана описать причины болезни Крупоз-зотилям, ее клиническое лечение, применение современных методов лечения при этом заболевании, а также применение современных методик.

**Abstract:** This article is intended to discuss the causes of croup, clinical manifestations, treatment, application of modern treatment methods in this disease, and the use of modern techniques.

Krupoz zotiljam - o`pkaning butun bo`lagi yoki uning 1-2 segmenti zararlanishi, qikl bilan kechishi va jarayonga o`pkani o`rab turgan plevra varaqalarining tor tilishi (plevropnevmonit), hamda o`pka alveolalari va mayda bronxlar sathini qoplovchi fibrinli ekssudat rivojla nishi bilan kuzatiladigan kasallik.

Infekcion omillar: pnevmokoklar, streptokoklar, stafilakoklar, Fridlender diplobasillasi, Pfeyfer tayoqchalari, viruslar va h.k. Moyil sharoitlar: organizmni kasallikka qarshi kurashish qobiliyati susayishi, uzoq vaqt sovqotish, bosh miya va ko`krak qafasi shikastlanishi, alkogol va tamaki che kishni suiste'mol qilishlik, organizmni infekqiyaga se zuvchanligining oshishi. Patogenezi. Kasallik qo`zg`atuvchi omillar o`pka to`qima siga bronx, qon va limfa yo`llaridan kiradi. Aksariyat mik roorganizmlar bronx orqali o`pka ildizi sohasidan o`pkaga kiradi va limfa tomirlariga o`tib oldin oraliq to`qima larda, so`ngra alveolalararo to`sqliarda yallig`lanish ja rayonini sodir qiladi. Bu erdan infekqiya alveolalar bo`shlig`iga tushadi va fibrinli eksudatni vujudga keltiradi. Natijada o`pka zichlashadi (qattiqlashadi), havosiz lanadi va uning «jigarlanishi» sodir bo`ladi. Bu davrda ko`p miqdorda virulentli mikroblar shikast langan o`pkada yig`iladi, balgam bilan tashqariga chiqadi, qonga o`tadi, shu bilan bir vaqtida antitanalar vujudga keladi. Antitanalar titri ma'lum darajaga etganda, mik roblar nobud bo`laboshlaydi, balg`am va qonda yo`qola-bosh laydi. O`pka to`qimasidan proteolitik fermentlarning ajralib chiqishi va fibrinli ekssudatning so`rilishi ku chayadi. Patologik anatomiyasi. Rosmana krupoz zotiljamda o`pka to`qimasida 4 bosqich o`zgarishlar aniqlanadi. Quyilish bosqichi - o`pka to`qimasida qizarishlik (gi peremiya), yallig`lanish shishi

kuzatilib, alveolalar tar kibida eritroqitlar, leykoqitlar, mikroblar va fib rin tolalari bo`lgan suyuq serozli ekssudat yig`iladi. Bu bosqich 12 soatdan 3 kechakunduzgacha davom etadi. Qizil jigarlanish bosqichi - ekssudat tarkibidagi fib rinlar zichlanishi, ko`p miadorda eritroqitlar, kamrok; - leykoqitlar to`planishi bilan ifodalanadi. O`pka hajmi kattalashadi, jigarga o`xshash qattiqlashadi. Davomiy ligi 1-3 kun. Kulrang jigarlanish bosqichi - ekssudat tarkibida eritroqitlar yo`qolishi o`rniga ko`p miqdorda leykoqit lar va fibrin tolalari to`planadi, bu holat o`pka to`qi masiga kul rangini beradi. O`pkaning yallig`langan qismi qattiqlashgan, kattalashgan. Davomiyligi 2-4 kun. So`rili bosqichi - proteolitik fermentlar ta`siri da fibrin ipchalarining erishi va so`riliishi, leykoqit lar parchalanishi kuzatiladi, natijada ekssudat so`rila boshlaydi. Mazkur bosqich boshqalarga nisbatan ancha uzoq davom etishi mumkin va uning davomati yalliglanish jarayonining hajmiga, kuchiga bog`liq. O`pka zararlanishi bilan bir vaqtida plevra varaqalari sathida fibrinsimon quyquil yig`ilishi bilan kuzatila digan plevra o`zgarishi vujudga keladi. Klinik ko`rinishi. Krupoz zotiljam to`satdan o`tkir boshlanadi. SHikoyati. Xastalik qaltirash va tana haroratining ko`ta rilishi ( $39-40^{\circ}$  gacha), hansirish bilan kuzatiladi. Nafas olganda, aksirganda, yo`talganda zararlangan

ko`krak qafa sida og`riq kuchayadi. Yo`tal avvaliga quruq, keyin yopishqoq, kiyin ajraluvchi balg`am ko`chishi bilan kuzatiladi, so`ngra u zangsimon tusga kiradi. Balg`am ko`chishi 4-6 kun davom etadi. O`pka to`qimasining zararlanish darajasiga bog`liq xolda intoksikaqiya belgilari (darmonsizlik, umumiy lo xaslik, ko`p terlash, kuchli bosh og`rig`i, ishtaha yo`qoli shi, ko`ngil aynishi, quşish, uyquning buzilishi, alaxsi rash) vujudga keladi. Ko`zdan kechirganda - bemor ahvoli orir, yuz terisi, lunji sohasida (simpatik nerv shikastlanishi tufayli) qizargan, burun va lab burmalariga uchuq toshgan. Bemor orriqni kamaytirish uchun ko`pincha shikastlangan tomonda yotadi. Nafas olishda burun qanotlari qatnashadi, ko`krak qafasi harakati o`pkaning zararlangan

tomonida orqada qoladi. Bu holat patologik jarayonga plevranning jalb etilishi bilan izohlanadi. Bemorning nafas olishi tez lashadi, yuzaki, chunki chuqur nafas olinganda og`riq ku chayadi. Kasallik klinik 3 bosqichda kechadi. Xastalikning boshlang`ich davri - patanatomiyada quyi lish davriga to`g`ri keladi.. Paypaslaganda ovoz titrashining kuchayishi aniqlanadi.

Perkussiyada - bo`g`iqroq timpaniq tovush eshitiladi. Auskultaqiyada - o`pka to`qimasi elastikligi va alveola devorlari taranglashishining pasayishi, hamda alveola lar ichida yallig`lanish ekssudati to`planishi tufayli ve zikulyar nafas susaygan. Nafas olish cho`qqisida boshlang`ich krepitasiya (sgeritacio ipdux). Sodir bo`ladi. Plevra varaqalarining ishqalanish shovqini eshitiladi. Kasallikning shakllangan (avj olgan) davri patologo anatolik qizil va kulrang

bosqichiga mos keladi. Paypaslaganda o`pkaning zararlangan sohasida tovush titrashi kuchayadi.

Perkussiyada bo`g`iq tovush ifodalangan (yaqqollashgan). Auskultasiyada - o`pka to`qimasi zichlashganligini ko`rsa tuvchi bronx nafasi eshitiladi.

Tuzalish davri - patologoanatolik so`rilish bosqichi ekssudat suyuqlasha boshlashi

bilan alveolalarga havo kirishi natijasida: Paypaslaganda tovush titrashi me'eriga keladi.

Perkussiyada - bo`g`iq tovush pasayib, bilinar-bilinmas timpaniq ohangda yaliglanish butunlay so`rilib ketganda o`pka tovushi eshitiladi. Auskultasiyada -bronx nafas susayadi, keyinchalik vezikuyaar nafasga o`tadi. oxirgi daral krepitaqiya (sgeritacio gedux) paydo bo`ladi, keyinchalik yo`qoladi. ekssudat so`rilihi natijasida mayda pufakchali jarangli nam xirillashlar eshitiladi. YUrak va qon tomiri tizimidagi o`zgarishlar mikroblar tok sinlari ta`sirida vujudga keladi, yurak mushaklarida di strofik (degenerativ) o`zgarishlar va vazomotor markazi ning shikastlanishi natijasida o`tkir qon tomir etishmov chiligi rivojlanadi: tomir urishi tezlashadi, arteriya qon bosimi pasayadi. Markaziy nerv tizimida turli xil o`zgarishlar ko`p uch raydi: bosh og`rigi, uyqusizlik, injiqlik, gohida alaxsi rash va turli xil gallyuqinaqiyalar bezovta qilishi mumkin.

Perifirik konda leykoqitlar tayoqsimon va bo`g`imyadroli neytrofillar xisobiga ko`payadi, leykoqitar formulasi ni chapga siljishi mieloqit va yosh neytrofillar paydo bo`lguncha davom etadi, eozinofillar mivdori keskin kama yodi yoki yo`qoladi, ECHT - ortadi. Rentgenda - o`pkaning yallig`langan bo`lagida yoki ay rim qismida o`zgarishlar turli tuman va kasallik bosqchiga bog`liq bo`lib, o`pka tasvirining kuchayganligi

va o`pka ildi zi soyasining kengayganligi aniqlanadi. Balg`am tarkibida eritroqit va leykoqitlardan tashqari diplokokk, pnevmokokklar va fibrin tolalari borligi aniqlanadi. Balgamni ekib antibiotiklarga nisbatan mik roflora sezgisini aniqlash kerak. Kechishi - zamonaviy davolash usullari natijasida krupoz zotiljamning klassik turlari hozirgi kunda kam uchraydi. Aksariyat yuqori tana harorati 1-3 kun turadi va to`satdan «kritik» yoki «litik» pasayadi. Kasallikni o`zi engil o`tadi. Lekin qon o`zgarishlar asta-sekinlik bilan barqarorlashadi.

Asoratlari:Xastalikning cho`ziluvchan kechishi va surunkali bronx o`pka kasalliklaririvojlanishi. CHo`ziluvchan kechishining asosiy sababi speqifik va nospeqifik himoyaning buzili shi, ya`ni makroorganizm reaktivligini o`zgarishidir. Bu tushuncha T va V immunokompetentli T va V xujayralar faaoliyatining pasayishini, immunoglobulinlar sintezinin susayishini, komplement tizimining zaiflashishini, fagoqitoz kamayishini o`z ichigaoladi. Bularning hammasi

makroorganizm ning infekqiyaga qarshi himoyasini kamaytiradi va yallig`lanish o`chog`ini «cho`zilib» xal bo`lishiga sharoit tug`diradi. O`pka abssessi va gangrenasi aksariyat zotiljam kasalligida sensibilizasiyalashgan yoki turli xil kasalliklar (qandli diabet, podagra, zaxm, sil) ta`sirida zaiflashgan organizmda vujudga keladi. Bunday holatlarda o`pkadagi yallig`lanish jarayoni shiddatli gipe rergik yallig`lanish ko`rinishida o`ta o`tkir kechadi, nati jada o`pka to`qimasida chirish jarayoni sodir bo`ladi. O`pka ning yiringli kasalliklari ko`pincha krupoz zotiljam ning avj olgan yoki oxirlashgan davrida rivojlanadi. Kasallikning klinik manzarasida bemorning umumiy ahvoli qaytadan og`irlashadi, tana harorati qayta ko`tariladi va qaltirash bilan kuzatiladi, ko`p miqqorda qo`lansa hidli balg`am ajralaboshlaydi. Auskultaqiyada oldin kuzatilma gan jarangdor namxirillashlar eshitiladi. O`pka abssessi tashxisini aniqlashda rentgen va balgamtekshirishlari muhim ahamiyatga ega. Parapnevmonik va metopnevmonikli ekssudativ plevrit. Krupoz zotiljamda quruq plevrit hamroh kasallik asoratga kirmaydi. Ammo serozli-fibrinozli yoki yiringliplevrit krupoz zotiljamining og`ir asoratlaridan hisoblanadi va kasallikning oxirida kuzatiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://bilim.tma.uz/articles/318>
2. <https://ghealth121.com/treatments/brain-hemorrhage/?lang=uz>